

TERRORIZM VA EKSTREMIZMNI OLDINI OLISHDA YOSHLARNING HUQUQIY ONGINI OSHIRISH

Xidirov Furqat Shukurullayevich

Annotatsiya: ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar transmilliy va transchegaraviy xususiyat kasb etib, ijtimoiy xavflilik darajasi, jahon miqyosida yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashda davlat organlarining vazifalari.

Abstract: Crimes related to extremism and terrorism have acquired a transnational and cross-border nature, increasing the level of social danger, emerging global dangers and threats, and the responsibilities of state bodies in ensuring peace and security.

Аннотация: Преступления, связанные с экстремизмом и терроризмом, приобрели транснациональный и трансграничный характер, что обусловило повышение уровня общественной опасности, возникновение глобальных опасностей и угроз, а также ответственности государственных органов за обеспечение мира и безопасности.

Dunyoda so‘ngi yillarda ekstremizm va terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlar transmilliy va transchegaraviy xususiyat kasb etib, ijtimoiy xavflilik darajasi keskin oshib bormoqda. Xususan, 2018–2024-yillarda dunyoning 100 dan ziyod mamlakat hududida 5 mingdan ortiq terroristik harakatlar sodir etilib, ularning oqibatida 30 mingdan ko‘proq inson halok bo‘lgan yoki jarohatlangan¹. Terrorizmga qarshi kurashish borasida dunyoda keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, mazkur turdagi jinoyatlar miqdori kamaymayapti. Bugungi kunda terrorizm umumbashariy halqaro muammoga aylandi. Shu sababli terrorizm bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik usul va asoslarini takomillashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda hamda ularni yanada takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Dunyo miqyosida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bo‘yicha tadqiqot olib boruvchi Iqtisod va tinchlik xalqaro institutining terrorizmning global indeksi bo‘yicha bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, Afg‘oniston, Iroq, Somali, Burkina-Faso, Suriya, Nigeriya, Mali, Niger va Pokiston davlatlarida terrorizm xavfi yuqori hisoblanadi. Oxirgi o‘n yillikda terrorchilik harakatlari oqibatida yuzaga kelgan o‘lim holati 182 ming nafarni tashkil etganligi bu illatning shaxs, jamiyat, davlat va insoniyat uchun qanchalik xavfli ekanligini ko‘rsatmoqda².

Bugungi kunda jahon miqyosida yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o‘rtasida xalqimizga yot g‘oyalar tarqalishining tobora kuchayib

¹ Соунтри Репорте он Терроризм 2024– Доклад Государственного департамента США о проблемах борьбы с терроризмом в мире // www.state.gov – официальный веб-сайт Государственного департамента США.

² https://t.me/manaviyat_va_marifat_darsi

borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o'z vaqtida ushbu tahdidlarni oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'yimoqda³.

Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonligini oshirish masalasi davlat hokimiyati va huquq-tartibot organlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Yaqin qo'shni va uzoq mamlakatlarda sodir bo'layotgan ichki noroziliklar va siyosiy inqirozlar tahlili aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida ishonchli hamkorlikning yo'qligini ko'rsatmoqda. Bu holatlar aholi bilan bevosita ishlaydigan ichki ishlar organlarining jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish faoliyatiga oid masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni hamda globallashtirish davrida ushbu faoliyatni takomillashtirib borishni talab etmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning huquqiy ongi va jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi hamda ushbu yo'nalishdagi islohotlar jamiyat hayotiga keng tatbiq etib kelinmoqda.

Xususan, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish" milliy dasturi doirasida jamiyatning barcha sohalarida huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, yuridik mutaxassislarini tayyorlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, davlat va jamiyat hayotini adolat mezonlari asosida boshqarishda ijobiy natijalarga erishildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish bo'yicha chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Ushbu Farmon bilan tasdiqlangan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasida yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha ta'lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini kengaytirish, jamiyat hayotida muhim o'rin tutuvchi fuqarolik jamiyati institutlari, davlat va nodavlat tashkilotlariga huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi⁴.

Biroq, ushbu yo'nalishdagi ishlar tahlil qilinganda, jamiyat huquqiy madaniyatini

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligiga hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. // Halq so'zi -2018 yil 13 yanvar

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish bo'yicha chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // URL <http://www.lex.uz>

rivojlantirish faqatgina huquqni muxofaza qiluvchi organlarning ishi sifatida ko'rilayotganligi, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlar, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan yoshlarning vatanparvarligini oshirish orqali huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida ishlar tizimli amalga oshirilmayotganligidan dalolat bermoqda.

Jahon miqyosida davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan turfa xil inqirozlar, ekstremizm va terorizm xususan jinoyatchilikning turli xil shakl va usullarda amalga oshirilayotganligi to'g'risidagi daliliy ma'lumotlar tahlili huquqiy ta'lim-tarbiya, huquqiy madaniyatni va **vatanparvarligini** yuksaltirishga oid tizimni isloh qilish, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda aholining huquqiy savodxonligini oshirishning zamonaviy va yanada samarali mexanizmini ishlab chiqish zarurati mavjudligidan dalolat beradi. Shu bois, jazolovchi ta'sir choralari kuchaytirish ko'magida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini zamonga mos holda shakllantirib borish, ularda huquqiy immunitetni hosil qilish orqali eustremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishining oldini olish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yurtimizda aholining huquqiy savodxonligini oshirish orqali huquqbuzarlik(jinoyat)larning oldini olish, jamiyatda o'rnatilgan tartibot va qonun normalariga og'ishmay amal qiluvchi shaxsni tarbiyalash masalalarining dolzarbligi bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishini taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, huquq-tartibotni ta'minlovchi tuzilma sifatida ichki ishlar organlari aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarga ijtimoiy, siyosiy, huquqiy yo'nalishdagi birlamchi axborotlarni uzluksiz yetkazib berishi orqali ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi⁵.

Shuningdek, ichki ishlar organi xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularning qonun hujjatlarini to'g'ri qo'llay olish amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish talab etiladi.

Yoshlarni qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonligini oshirishda ichki ishlar organlarining faoliyatida uchrayotgan ayrim muammolar va unga ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lib, bu muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etmasdan turib, jamiyat huquqiy madaniyatini to'laqonli yuksaltirishning imkoni yo'q.

Jumladan, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish bo'yicha chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni// URL <http://www.lex.uz>

Shuningdek, yoshlar bilan manzilli ekstremizm va terrorizmni oldini olishda huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti.

Huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, ichki ishlar organlarining huquqiy yo'nalishdagi internet sahifalari yetarli emas.

Mazkur muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy tomonlari bo'yicha shu kunga qadar ilmiy tadqiqot ishlari to'liq o'tkazilmayotganligi sababli ichki ishlar organlari boshqa davlat organlari bilan mazkur yo'nalishda innovatsion yechimlar va yangiliklar veb-saytlar orqali targ'ibot tashviqot ishlarini tashkil etishlari hamda ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishlari maqsadga muvofiq.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Asosiy masala - qonunlarning mazmun-mohiyatini xalqimizga va mas'ul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qat'iy amal qilishni ta'minlashdan iboratdir". Mazkur vazifalar va "O'zbekistonning Yangi taraqqiyot strategiyasi" 17, 20-maqсадlari talabidan kelib chiqib, ichki ishlar organlarining jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirishga oid faoliyatini takomillashtirish, «aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida davlat tuzilmalari (*muallifdan: shu o'rinda, ichki ishlar organlari*) ning fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish» bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish va uning ilmiy yechimini topish muhim ahamiyat kasb etadi⁶.

Yuqoridagilarga asosanib xulosa sifatida shuni aytish joizki Ichki ishlar organlari xodimlari ekstremiz va terrorizmni oldini olishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda aholinig jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ular bilan uchrashuvlar hamda aholini qiynab kelayotgan huquqiy muammolarini bartaraf etish orqali huquqiy savodxonligini oshirsak maqsadga muvofiqdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соунтрий Репортс он Терроризм 2024— Доклад Государственного департамента США о проблемах борьбы с терроризмом в мире // www.state.gov — офитсиальный веб-сайт Государственного департамента США.
2. https://t.me/manaviyat_va_marifat_darsi

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoni // URL <http://www.lex.uz>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligiga hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. // Halq so‘zi -2018 yil 13 yanvar
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF–5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish bo‘yicha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // URL <http://www.lex.uz>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoni // URL <http://www.lex.uz>